

QASHQADARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI




Qashqadaryo viloyatida kichik tadbirkorlik 2022- yil yanvar-mart


Qashqadaryo viloyatida kichik tadbirkorlik




Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi, % da



2020- yil



2021- yil




2022- yil

2022- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHM dagi ulushi **57,4** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **9,4** birlikni tashkil qildi.

2022- yilning yanvar-martida **1764** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **57,8** % ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda 607 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 459 ta, sanoatda 320 ta, yashash va ovqatlanishda 79 ta, tashish va saqlashda 78 ta tashkil etilgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari



2022- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

99,3



Sanoat

23,8



Qurilish

78,9



Investitsiya

29,6



Savdo

91,9



Xizmatlar

66,8



Eksport

49,1



Import

61,7



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

32257




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

1764

2022- yilning yanvar-martida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da



■ 2021- y. ■ 2022- y.

■ (+;-)

Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar



2022- yil 1- aprel holatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, % da

Savdo

32,4 %



Sanoat

15,0 %



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

21,5 %



Qurilish

10,7 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

5,5 %



Tashish va saqlash

3,0 %



Axborot va aloqa

1,4 %




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

2,0 %




Boshqa faoliyat turlari

8,5 %



1-aprel holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

Hududlar bo'yicha 1- aprel holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



■ 2021- y. ■ 2022- y.

■ (+;-)

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar



Hududlar bo'yicha yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda




■ 2021- y. yanvar-mart

■ 2022- y. yanvar-mart

2022- yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da


2022- yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Qarshi shahri – 13,9 %, Koson tumani – 8,0 %, Chiroqchi tumani – 8,0 %, Dehqonobod tumani – 7,8 %, Kitob tumani – 7,3 %, Qamashi tumani - 7,3 % hissalariga to'g'ri keldi.



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar



Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



Ma'lumot uchun: 2022- yil yanvar-martda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:


Savdoda
607 ta

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida
459 ta

Sanoatda
320 ta

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
79 ta

Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda



Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida



2022- yil 1-aprel-holatida yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 9,4 birlikni tashkil etdi.



Qashqadaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), 1-yanvar holatiga ko'ra*


2020- y. 12,4

2021- y. 14,9

2022- y. 9,4

2022- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)*

2022- yilning 1-aprel holatida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Qarshi shahrida 21,9 birlik, Shahrisabz shahrida 12,4 birlik, Muborak tumanida 11,8 birlik, Mirishkor tumanida 10,2 birlik, Dehqonobod tumanida 9,7 birlikni tashkil etgan.



* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida



2022- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga tuman va shaharlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Qarshi shahrida 21,9 birlik, Shahrisabz shahrida 12,4 birlik, Muborak tumanida 11,8 birlik, Mirishkor tumanida 10,2 birlik, Dehqonobod tumanida 9,7 birlik, Qarshi tumanida 9,1 birlik, Koson tumanida 8,7 birlik, Nishon tumanida 8,7 birlikni tashkil etdi.


Qashqadaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), 2022- yil 1-aprel holatiga ko'ra*

Eng yuqori ko'rsatkich
Qarshi tumani 21,9 birlik.

O'rtacha ko'rsatkich
Nishon tumani- 8,7 birlik.

Past ko'rsatkich
Chiroqchi tumani - 6,1 birlik.

2022- yilning yanvar-martida har 1000 aholiga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari sonini eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda *




* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti




2022- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 36,0 million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 49,1 % ini tashkil etdi.

Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami eksportdagi ulushi




2022- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da



2022- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Yakkabog', Dehqonobod, Shahrisabz, Kitob tumanlari hamda Qarshi va Shahrisabz shahrida – 100,0 %, Nishon tumanida – 98,9 %, G'uzor tumanida – 97,4 %, ni eng past ko'rsatkich Qarshi tumanida – 14,7 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi




Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami importdagi ulushi

2022- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **45,2** million AQSH dollarini yoki umumiy importning **61,7 %** ini tashkil etdi.



2022- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Koson tumanida – 99,8 %, Qarshi shahrida - 82,4 %, Qarshi tumanida – 82,3 %, Chiroqchi tumanida – 76,5 %, Muborak tumanida – 62,7 %, Yakkabog' tumanida – 57,2 % ni tashkil etdi. Eng past ko'rsatkich Kasbi tumanida – 1,8 % ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati




2022- yilning yanvar-martda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi

2022- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1119,9 milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Qarshi shahri (209,9 mlrd. so'm), G'uzor (176,4 mlrd. so'm), Yakkabog' (121,8 mlrd. so'm), Qamashi (87,2 mlrd. so'm) va Kitob (77,4 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Kasbi tumanida (22,8 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati




Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi




2022- yil yanvar-mart oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **23,8 %** ni tashkil etdi.

2022- yil yanvar-mart holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Kitob tumani (98,0 %), Shahrisabz tumani (82,3 %), Yakkabog' tumani (77,6 %), Shahrisabz shahri (77,6 %), Qamashi tumani (63,2 %), Chiroqchi tumani (62,2 %), Qarshi tumani (41,4 %), Koson tumani (40,8 %), Qarshi shahri (34,5 %) va Mirishkor tumanlari (23,0 %) tashkil etdi. Nishon tumanida (4,0 %) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi faoliyati



Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi ulushi


2022- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **3417,1** mlrd. soʻmni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **91,9 %** ini tashkil etib, oʻsish surʻati 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **103,6 %** ni tashkil qildi.

2022- yilning yanvar- martida hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va oʻsish surʻati

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Qarshi shahri (683,6 mlrd. soʻm), Chiroqchi (410,8 mlrd. soʻm), Koson (375,3 mlrd. soʻm), Shahrisabz shahri (270,8 mlrd. soʻm), Kitob (261,9 mlrd. soʻm) Qamashi (194,6 mlrd. soʻm), va tumanlari hissasiga toʻgʻri keldi.



Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi faoliyati




2022- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **1137,3** milliard soʻmni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **78,9 %** ini tashkil etdi. Oʻsish surʻati 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **104,0 %** ni tashkil qildi.



Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp bajarilgan qurilish ishlari hajmi Qarshi shahri (234,3 mlrd. soʻm), Qarshi (86,4 mlrd. soʻm), Koson (49,6 mlrd. soʻm), Gʻuzor (93,6 mlrd. soʻm), Chiroqchi (65,1 mlrd. soʻm), Kitob (55,1 mlrd. soʻm) hamda Shahrisabz shahrida (42,0 mlrd. soʻm) qayd etildi.

2022- yilning yanvar- martida hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va oʻsish surʻati




■ hajm, mlrd. soʻm

● oʻsish surʻati, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi faoliyati




Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami xizmatlardagi ulushi



2022- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **2240,4** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **66,8 %** ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **118,2 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Qarshi shahri (646,5 mlrd. so'm), Koson (173,7 mlrd. so'm), Kitob (169,8 mlrd. so'm), Chiroqchi (142,0 mlrd. so'm), Yakkabog' (129,0 mlrd. so'm) va Qarshi (124,8 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


2022- yilning yanvar- martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati




■ hajm, mlrd. so'm

● o'sish sur'ati, %


2022- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da:




Yuk tashishda



Yuk aylanmasida



Yo'lovchi tashishda



Yo'lovchi aylanmasida

2022- yil yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 80,5 % ni tashkil etdi. 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 102,7 % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 83,7 % ni tashkil etgan bo'lib, 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 103,3 % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 95,1 % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar- mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 101,5 % ni tashkil qildi.

2021- yil yanvar- mart oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 97,5 % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar- mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 102,9 % ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari




2022- yil I- chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma **1186** ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 625 (52,7 %) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 469 (39,6 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 92 (7,7 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 8,5 % (101 ta), sanoatda – 14,7 % (174 ta), qurilishda – 13,7 % (163 ta) savdoda – 38,9 % (461 ta), xizmatlar sohasida – 24,2 % (287 ta) ni tashkil etdi.

2022- yil I- chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da




- Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
- Sanoat
- Qurilish
- Savdo
- Xizmatlar

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari




2022- yil I- chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Qarshi shahri (265 ta), Kitob (105 ta), Chiroqchi (104 ta), Shahrisabz shahri (92 ta) va Qarshi (91 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


2022- yil I- chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari




2022- yilning I- choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2022- yilning I- choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – 60,5 % ni, xizmatlar sohasida 54,0 % ni, sanoatda 48,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 50,5 % ni, va qurilishda – 48,5 % ni tashkil etdi.

2022- yilning I- choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2022- yilning I- choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda 68,1 % ni, xizmatlar sohasida 66,2 % ni, qurilishda 62,6 % ni, tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi sanoatda 33,9 % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 33,7 % ni, qurilishda 31,9 % ni, tashkil etdi.



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari



2022- yilning I- choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	57,5	35,5	7,0
Band bo'lganlar soni	47,9	45,8	6,3
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	54,8	39,5	5,7
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	46,7	44,7	8,6
Raqobat muhiti*	59,9	35,5	4,6

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	68,0	28,9	3,1
Band bo'lganlar soni	57,5	39,8	2,7
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	63,0	34,5	2,5
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	55,6	38,4	6,0
Raqobat muhiti*	67,9	29,8	2,3


Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari



2022- yilning I- choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2022- yilning I- choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari,
tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi
bo'limi

Tel: (75) 221-32-44